



O'PKA SARATONINI ERTA TASHXISLASHNING INNOVATSION USULLARI

GULIRA'NO ARTIKOVA ATOXON QIZI

PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI

AGENTLIGI QO'SHKO'PIR TUMAN

IXTISOSLASHTIRILGAN

MAKTAB O'QUVCHISI

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada o'pka saratoni, turlari, belgilari va uning kelib chiqish sabablari, uni erta tashxislashning innovatsion usullari haqida so'z borgan.

O'pkaning vazifalari va o'pka saratonining samarali davolash usullari yoritib berilgan. Ushbu maqola shu sohadagi ilmiy izlanuvchilar va erkin tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

KALIT SO'ZLAR: O'pka, saraton, tashxis, kasallik, hujayra, o'pka saratoni, organ, Suyak, nafas qisishi, ilik, usul, tana, og'riq

ANNOTATION: This article discusses lung cancer, its types, symptoms, causes, and innovative methods for early diagnosis. The functions of the lungs and effective treatment methods for lung cancer are also covered. This article may be useful for scientific researchers and independent investigators in the field.

KEYWORDS: lung, cancer, diagnosis, disease, cell, lung cancer, organ, bone, shortness of breath, marrow, method, body, pain.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются рак лёгких, его виды, симптомы и причины возникновения, а также инновационные методы ранней диагностики. Описаны функции лёгких и эффективные методы лечения рака лёгких. Статья может быть полезна научным исследователям и независимым ученым в данной области.



КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: лёгкое, рак, диагностика, болезнь, клетка, рак лёгких, орган, кость, одышка, костный мозг, метод, тело, боль.

KIRISH

O'pka inson tanasining ko'krak qafasida joylashgan juft organ bo'lib, nafas olish tizimining bir qismi hisoblanadi.

O'pkaning vazifasi - u tanadagi gazlar uchun filtrlik qiladi. Shu bilan bir qatorda kislorod bilan nafas olishga va karbonat angidridni chiqarishga yordam beradi.

O'pka saratoni –bu birinchi va ikkinchi yoki ikkala o'pkada ham normal hujayralarning nazoratsiz o'sishi natijasida yuzaga keluvchi kasallik hisoblanadi. O'pka saratoni eng ommalashgan jiddiy kasallik bo'lib, asosan chekuvchi odamlarda ko'p aniqlanadi.

O'pka saratonining turlari. Ushbu kasallikning bir qancha turlari mavjud. Biz ularning bir nechtasini keltirib o'tamiz. Demak, o'pka saratonini quyidagi turlarga bo'linishi mumkin ekan.

1. Kichik bo'lmagan hujayrali o'pka saratoni;
2. Kichik hujayrali o'pka saratoni;
3. O'pka karsinoid shishi.

Ushbu saraton kasalliklari bilan ham tanishtirib o'taman. Demak, birinchi turdagi saraton turi bu eng keng tarqalgan tur hisoblanadi. Bu katta hujayrali karsinoma, adenokarsinoma yoki skuamoz hujayrali karsinoma bo'lishi mumkin. Ikkinchi turdagi saraton turi juda keng tarqalmagan bo'lsa ham tez-tez uchraydi. Uchinchi turdagi kasallik bu o'pka karsinoid shishi hisoblanadi. Bu neyroendokrin hujayralarga ta'sir qiluvchi o'pka saratonining kam uchraydigan turi hisoblanadi.

O'pka saratonining belgilari –O'pka saratonini dastlabki bosqichda aniqlash biroz qiyin. Lekin yetakchi bosqichda quyidagi belgilar va alomatlar mavjud bo'lishi mumkin.

- * ovozning o'zgarishi;
- * charchoq va zaiflik;



- * tez-tez ko'krak qafasi infeksiyalari;
- * yo'talganda qon tupurish;
- * muntazam qabul qilinadigan dorilar evaziga oldi olinadigan yo'tallar;
- * ovoz o'zgarishi bilan eski yo'talning davom etishi;
- * og'riq beruvchi shilimshiq seksetsiya;
- * suyaklarda og'riq paydo bo'lishi;
- * nafas qisqaligi;
- * vazn yo'qotish.

O'pka saratonining kelib chiqish sabablari. O'pka saratonining asosiy sabablaridan biri bu chekish deb yuqorida aytib o'tdik. Chekuvchilar o'zi faol chekuvchilar va passiv chekuvchilar bo'ladi. Bunday odamlarda o'pka saratonining xavfi yuqoriroq bo'ladi. Lekin bu kasallik gohida umuman chekmaydigan odamlarda ham uchrashi mumkin. Shuningdek, o'pka saratonining bir nechta asoratlarini keltirib o'tamiz: Bular nafas olishning qiyinlashishi, ko'krak qafasida suyuqlik yig'ilishi, saratonning miyya va suyaklar kabi yaqin organlarga tarqalishi, og'izdagi yaralar, tishlarning parchalanib ketishi yoki og'izning quruq bo'lib qolishi, muntazam ravishda diareya va ichning qotib qolishi, kasallikning boshqa tana a'zolariga va suyaklarga tarqalishi natijasida suyaklarda og'riqlarning paydo bo'lishidir.

So'nggi yillarda o'tkazilayotgan faol ilmiy izlanishlar va innovatsion kashfiyotlar sababli tibbiyotda saraton kasalligini tashxislash va oson davolashning yangi usullari paydo bo'ldi, bu esa albatta onkologik kasalliklarga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishishga imkoniyat yaratib berdi. Bilamizki, saraton hujayralari juda ham mukammal faoliyatda bo'ladi. Ular odatda kamulflyaj qilish va immunitet tizimini o'zgartirib, tanada nazoratsiz ko'payadi va sog'lom to'qimalarga ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, bir necha yillar davomida tibbiyot onkologiya tabiatini aniqlash uchun faol ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Va olimlar o'z ilmiy tadqiqotlari natijasida sezilarli yutuqlarga ham erishib kelmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan yangi



kashfiyotlardan biri bu onkologiyani davolashning yangi usullari haqida ushbu maqolada ma'lumot keltirib o'taman.

1. Mazmun terapiyasi;
2. Immunoterapiya;
3. CAR-T hujayrali terapiyasi;
4. Smart biopsiyasi;
5. Revolyutsiyaviy davolash texnologiyalari;

Dastlabki usul bu-suyak iligi translyatsiyasi ya'ni sog'lom suyakning iligini bemorning suyagiga ko'chirib o'tkazish usuli hisoblanar edi. Endilikda bu usuldan ko'ra yangi maqsadli dorilarning ishlab chiqilishi shifokorlar uchun muvaffaqiyatli yutuq bo'ldi. lenfoma va leykemiyaning turli shakllari bo'lgan bemorlarning taxminan 70-80%ida barqaror remissiyaga erishildi. Bundan tashqari, ba'zi hollarda bu ko'rsatkich suyak iligi translyatsiyasiz 90% ga etadi.

Onkologik kasalliklarning eng ko'p tarqalgan turiga mansub o'pka saratonini davolash uslublari muntazam ravishda mukammalashib bormoqda. Shuningdek radiatsion onkologiya sohasidagi so'nggi ishlanmalar xatarli o'simtalar bilan kurashishda o'zining yuqori samaradorligini ko'rsatmoqda. Erta qo'yilgan tashxis juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Tashxis ertaroq belgilanib, muolaja qancha tez boshlansa, kasallikni to'liq yengish uchun imkoniyat shuncha ortadi. O'pka saratonini davolash jarrohlik amaliyoti, kimyoterapiyasi va nurlanish terapiyasi orqali ham amalga oshiriladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda o'tkazilayotgan faol ilmiy izlanishlar va innovatsion kashfiyotlar sababli tibbiyotda saraton kasalligini tashxislash va oson davolashning yangi usullari paydo bo'ldi, bu esa albatta onkologik kasalliklarga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishishga imkoniyat yaratib berdi. Erta qo'yilgan tashxis asosiy ahamiyatga ega.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.<https://www.yashodahospitals.com/uz/diseases-treatments/lung-cancer-symptoms-diagnosis-treatment-prevention/>
- 2.<https://daryo.uz/2020/03/10/saraton-kasalligini-yengishga-yordam-beradigan-eng-songgi-muolajalar>
- 3.<https://kun.uz/news/2019/05/06/opka-saratonini-davolashda-yangi-davr>